

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 2025-yilning 9 oyi uchun

UMUMIY HISOBOT

Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot.

Vazirlik markaziy apparatining **27 ta** tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risida”gi namunaviy nizom va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-sonli qarori bilan belgilangan ustuvor vazifalarga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, **14 ta** hududiy boshqarma, **27 ta** Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markaz, **25 ta** Respublika tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari va **12 ta** tizim tashkilotlarida Vazirning 2025-yil 7-iyuldagi 200-sonli buyrug‘i bilan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis shtat birligi joriy qilinib, malakali kadrlar bilan to‘ldirish uchun tanlov o‘tkazilmoqda.

Jumladan, hisobot davrida tanlov natijasiga ko‘ra **30 nafar** nomzod ishga qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari **1 marotaba** Hay‘at yig‘ilishida **2 marotaba** navbatdan tashqari va har haftaning shanba kuni qilingan ishlar vazir rahbarligida tanqidiy muhokama yig‘ilishlarida muhokama qilib borilmoqda.

Shuningdek, “**Korrupsiyasiz soha**” loyihasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash tomonidan tasdiqlangan **30 ta** hududiy “**Yo‘l xarita**”lari va **chora-tadbirlar rejalari** amalga oshirilmoqda hamda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi faoliyatini kuchaytirish, hududiy boshqamalar, respublika tashkilotlari va muassasalarida komplaens nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha **chora-tadbirlar rejasi ham** bajarilmoqda.

Vazirlikda “**Korrupsiyaga qarshi boshqaruv menejmenti ISO:37001:2025**” xalqaro standartini joriy qilish maqsadida, Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi delegatsiyasining hamkorlik bo‘yicha loyiha menejeri Yana Kurpisha, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) Samarali Davlat boshqaruv dasturi rahbari Dr.Viktor Kesslerlarning vazir bilan uchrashuvi o‘tkazildi. Hozirda, xalqaro standartni vazirlikda joriy qilish ishlari boshlandi hamda “Akusherlik, tug‘ruq jarayonlari va farmasevtika sohasida korrupsiyaviy holatlarni yuzaga keltiruvchi omillar va ularni amaliy jihatdan bartaraf etish” mavzularida milliy darajadagi ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etilmoqda.

Siyosat va tartib-taomillar.

Vazirning 2025-yil 8-iyuldagi 203-sonli buyrug‘i bilan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid quyidagi **14 ta ichki idoraviy hujjatlar yangi tahrirda qabul qilinib**, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirildi:

- Sog‘liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati;

- Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti;

- Sog‘liqni saqlash vazirligida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom;

- Sog‘liqni saqlash vazirligi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti;

- Sog‘liqni saqlash vazirligi xodimlarini “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

- Sog‘liqni saqlash vazirligida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma;

- Sog‘liqni saqlash vazirligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma;

- Sog‘liqni saqlash vazirligida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;

- Sog‘liqni saqlash vazirligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha reglament;

- Sog‘liqni saqlash vazirligi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament;

- Sog‘liqni saqlash vazirligida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma;

- Sog‘liqni saqlash vazirligi xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek, uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

- Sog‘liqni saqlash vazirligida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

- Sog‘liqni saqlash vazirligida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida nizom.

Mazkur hujjatlar **14 ta** hududiy boshqarma, **27 ta** Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markaz, **25 ta** Respublika tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari va **12 ta** tizim tashkilotlariga ham tatbiq etildi.

Xavf-xatarlarni baholash bo'yicha korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish uchun sohaga oid qonunchilik hujjatlari xatlovdan o'tkazilib, **18 ta** qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **26 ta** Farmoni va **125 ta** qarori hamda Vazirlar Mahkamasining **125 ta** qarori, shuningdek, **96 ta** idoraviy hujjatlar aniqlanib, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishda aniqlangan **421 ta** korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish yuzasidan taklif berildi.

Vazirlikning vazifa va funksiyalaridagi **26 ta yuqori** xavf-xatar baholanib, **xavf xatarlar xaritasi** va ularni minimallashtirish bo'yicha **26 banddan iborat dastur** amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha shatat birligi mavjud bo'lmagani sabab hududiy boshqarmalar, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar, Respublika tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari va tizim tashkilotlarining vazifa va funksiyalaridagi xavf-xatarlar baholanmagan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida, faoliyatni raqamlashtirish bo'yicha uchta bo'g'in o'rtasida ma'lumot almashish imkonini beruvchi DMED, tez tibbiy yordam, Cancer-registr hamda JihozMed axborot tizimlari yaratildi. Tizimda **35 ta** tibbiyot (klinik) yo'nalishlari bo'yicha **400 ta** protokollar va davolash standartlari orqali tashxis qo'yish imkoniyati yaratildi.

Aholi va tibbiyot xodimlariga qulaylik yaratish uchun DMED va tez tibbiy yordam axborot tizimlarining mobil ilovalari ishga tushirildi. **300 ming** nafardan ortiq fuqaro DMED mobil ilovasini yuklab olib, foydalanishni boshladi. Qo'shimcha **8 ta** davlat xizmatlari raqamlashtirildi va elektron shaklda ko'rsatilayotgan tibbiyot xizmatlar soni **28 taga** yetkazildi.

Respublikadagi **3 838 ta** tibbiyot muassasalari DMED tizimiga ulanib, **32,8 mln nafar** aholining yagona elektron tibbiy kartasi shakllantirildi. Yagona elektron tibbiy karta natijasida takroriy protseduralar (laboratoriya, rentgen, UZI, MRT) kamayib, ortiqcha mablag' sarflanishi oldi olinadi.

"Elektron retsept" modulida dori vositalarini elektron tayinlash yo'lga qo'yilib, respublika bo'yicha **12 200 ta** dorixonaning **7 798 tasi (64 foiz)** qamrab olindi.

Yunusobod tumanida so'nggi ikki oyda **26 mingta** elektron shaklda retsept bilan beriladigan dori vositalari tayinlanib, dori iste'moli **43 foizga** kamaydi.

Tibbiy sug'urta joriy qilingan **8 ta** hududda 2025 yil 1 iyul holatiga reimbursatsiya dasturida **11 939,5 mln. so'mlik**, **509 115 ta** retsept realizatsiya

qilindi. “Laboratoriya” moduliga **51 ta** analizatorlar ulanib, tahlil natijalarini olish **24 soatga** qisqardi.

“Elektron kassa” modulida tibbiy xizmatlarning markazlashgan moliyaviy monitoringi hamda aholiga PayMe, Click, Uzum, Paynet tizimlari orqali to‘lovni amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Qog‘oz shakldagi **47 turdagi** hisobot va jurnallar, **24 turdagi** blank va tibbiy ma’lumotnomalar raqamlashtirildi.

Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish Vazirlikning markaziy apparatining **193 nafar** boshqaruv xodimlari ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi yillik deklaratsiya to‘ldirdi va hozirda ularni tahlil qilib, aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini bataraf etish choralari ko‘rilmogda.

Mazkur tadbir hududiy boshqarmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida ham amalga oshirilib, **1000 nafardan ortiq** xodimlar deklaratsiya to‘ldirdi.

Shuningdek, axborot tizimi orqali 2025 yilning o‘tgan davrida jami **146 mingta** umumiy summasi **1 trln so‘mlik** risklar tahlil qilinib, **44 mingta** holatda **130 mlrd so‘mlik** xavf (risk) aniqlandi hamda **qizil (31 ta 6 mingta risk (14 foiz)**

17 mlrd so‘m), sariq (148 ta 35 mingta risk (80 foiz) 94 mlrd so‘m) va **yashil (30 ta 3 mingta risk (6 foiz) 19 mlrd so‘m)** toifaga ajratildi. Natijasi bo‘yicha jami **9,7 mlrd so‘mlik** mablag‘larni **ortiqcha rejalashtirishning** oldi olindi.

Bu ko‘rsatkich o‘tgan **2024 yilda 96,4 mingta** umumiy summasi **1,4 trln so‘mlik** risk taxlillari bo‘yicha, **1,3 trln.so‘mlik** risklarning oldi olingan.

Shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligi hududiy tashkilotlari tomonidan 2025 yil uchun tasdiqlangan xarajatlar smetasida ortiqcha rejalashtirilgan **394,9 mlrd so‘mlik** mablag‘ning **247 mlrd so‘mi** maqbullashtirildi. **2024 yilda** esa **1,5 mlrd so‘m** pul mablag‘larini tejashga erishilgan.

Qolgan risklar, xususan, **qizil** xududda turgan **31 ta** tuman tibbiyot birlashmalari bilan bevosita ishlangan holda **sariq** va **yashil** xududga o‘tkazish choralari ko‘rilmogda, xususan, Iqtisodiyot, menedjment va buxgalteriya hisobi standartlari yo‘nalishida **216 nafar** tibbiyot muassasasi rahbar xodimlarining malakasi oshirildi.

Byudjet mablag‘lari, ya’ni sog‘liqni saqlash sohasiga davlat tomonidan ajratilgan mablag‘larni mas’ul shaxslar tomonidan puxta ishlab chiqilgan jinoiy usul (sxema)lar yordamida tolon-toroj qilishning ehtimoli yuqori, xususan, mablag‘lar ish haqi va mukofot pullarini hisoblashda sun’iy orttirilgan ko‘rsatkichlar kiritilgan soxta hujjatlar asosida talon-toroj qilinadi, oylik ish haqlarini avtomatlashtirilgan

tizimda hisoblovchi “UzAsbo” dasturiy majmuasiga asossiz ma’lumotlar (aksariyat: xodimlarining amaldagi bazaviy tarif stavkalariga nisbatan yuqori ko’rsatish) kiritilishi holatlari, shuningdek, hisobda turgan mulklarni begonalashtirish hamda muassasalarda joriy va kapital ta’mir va ta’minlash ishlari bajarilgani haqidagi hisobot hujjatlariga aslida bajarilmagan ish hajmlari qo’shib yoziladi, bundan tashqari, aslida ishlamaydigan xodimlarga soxta xujjatlar asosida ish haqi to’lovlari amalga oshirish holatlari tahlil qilinib, davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag’larni maqsadli sarflanishini ta’minlash, byudjet qonunchiligiga rioya etilishini profilaktika qilish, monitoring va nazorat o’rnatish haqida hududiy boshqarmalar, tizim tashkilotlari va muassasalariga ko’rsatma kiritildi.

Bundan tashqari, **davlat xaridlari sohasida** tibbiy jixozlarni kafolat majburiyatlarini **kuzatib borish tizimi** joriy etildi, xorijiy tajribalar asosida bajariladigan ishlar va xizmatlarning (logistika) **narxlari** tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining “Farmasevtika mahsulotlari bo’yicha davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to’g’risidagi qaror loyihasi ishlab chiqilib, unda maxsus yaratiladigan “Farma.xarid.uz” elektron moduli orqali davlat buyurtmachilari va ishtirokchilar o’rtasida tuziladigan shartnomalarda belgilangan farmasevtika mahsulotlarining narxi qonunchilikka muvofiq belgilangan referent narxlardan oshmasligi ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi joriy etilishi ko’zda tutilgan.

Mazkur nazorat elektron modul orqali avtomatik tarzda amalga oshiriladi va ushbu modul orqali aniqlangan ma’lumotlar asosida G’aznachilik xizmati qo’mitasi shartnomalarni ro’yxatdan o’tkazish (hisobga olish) jarayonida mazkur talabga rioya etilishi yuzasidan doimiy monitoringni ta’minlaydi. Shuningdek, xarid qilinadigan barcha dori vositalari va tibbiyot mahsulotlari bo’yicha referent narxlarga qat’iy rioya qilinishi majburiy hisoblanadi.

Moliyaviy sohadagi **1 280 nafar** (*Ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Respublika davolash-profilaktika muassasalarida 134 ta, hududiy boshqarmalar, tuman(shahar) tibbiyot bo’limlarida 347 ta, vazirlik tizimidagi boshqa tibbiyot muassasalari, tibbiyot oliy ta’lim muassasalari va davolash-profilaktika muassasalarida 796 ta holat qayd etilgan*) raxbar xodimlar faoliyatida aniqlanib **manfaatlar to’qnashuvi va nepotizm** risklarining **567 tasi** bartaraf etildi va qolganlari bo’yicha ham chora ko’rilmogda.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Vazirlik shartnomalariga kiritish.

Vazirlik markaziy apparatida tuzilgan **271 ta (100 foiz)** xo’jalik shartnomalariga **korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilgan bo’lib**, kontragentlar tomonidan rad etish yoki bekor qilish holatlari mavjud emas. Hududiy

boshqarmalar, tizim tashkilotlari va muassalarida rasmiylashtirilgan shartnomalarga ham yuqoridagi kabi shartlar kiritilgan.

Ta'lim va kommunikatsiya.

Xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida Sog'liqni saqlash vazirining 2025 yil 15 avgustdagi 255-sonli buyrug'i qabul qilinib, Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Respublika o'rta tibbiyot va dorishunos xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hamda Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazlari, shuningdek, barcha tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida 2025-2026-o'quv yilidan boshlab tegishliligi bo'yicha bakalavr (5-6-bosqich), ordinatura va magistratura (2-bosqich) talabalari, shuningdek, vazirlik tizimi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirib borish tizimi joriy etildi.

Bakalavr (5-6-bosqich), ordinatura va magistratura (2-bosqich) talabalari uchun "Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish" o'quv (modul) dasturi, shuningdek, tibbiyot muassasalarining rahbarlari, moliyalashtirish va buxgalteriya, tashkiliy - kadrlar va inson resurslarini rivojlantirish tuzilmalari hamda boshqa boshqaruv xodimlari, shuningdek, barcha shifokorlar va hamshiralar uchun "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish" moduli asosida malaka oshirish o'quv dasturlari Vazirlik bilan birgalikda tasdiqlandi.

O'quv kursining maqsadi va vazifasi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, talabalar va xodimlarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, inson va uning sha'nini faqat qonunga rioya etgan holda huquqiy himoyasini ta'minlash, talabalar va xodimlarni o'qitish orqali manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

O'quv kursini o'zlashtirish orqali xodimlar:

- kasbiy faoliyatni halol va vijdonan bajarish;
- korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari keng joriy etish, tibbiyot sohasida ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik oldida hisobdorlikni oshirish;
- tibbiyot xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularga «halollik vaktsinasi»ni singdirish;
- har qanday qonun buzilishlariga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga murosasizlik hissiyotini shakllantirish;
- umume'tirof etilgan kasbiy odob-axloq normalariga rioya qilish malaka va ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Mazkur o'quv kurslari va malaka oshirish jarayonlariga ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida ilmiy daraja, unvonga ega bo'lgan Davlat boshqaruvi akademiyasi, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, Toshkent davlat yuridik universiteti kabi muassasalarining professor, o'qituvchilari jalb etilishi belgilandi.

Shuningdek, darslarnig amaliy jihatini inbatga olib huquqni muhofaza qiluvchi organlarda amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlar hamda tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi Davlat xavfsizlik xizmati xodimlarining amaldagi ofitserlari tomonidan amaliy "mahorat dars"lari o'tib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, buyruq bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari markaziy apparati, tuman (shahar)lar bo'limlari, tizim tashkilotlari va muassasalari hamda tibbiyot muassasalari boshqaruv xodimlarini 2025-yilning sentyabr-oktyabr oylarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bazaviy o'quv kurslarida (bepul asosda) o'qitish, shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, tizim tashkilotlari va muassasalari rahbarlari, bosh hisobchilari, kadrlar xizmati, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi va korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlarda faoliyat ko'rsatuvchi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha malakasini oshirishni "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida yillik o'qitish reja-grafigiga muvofiq to'lov-shartnoma asosida tashkillashtirish rejalashtirildi.

Hisobot davriga **240 nafar** bakalavr va **480 nafar** magistr talabalar, shuningdek, **98 nafar** oliy ma'lumotli va **5 204 nafar** o'rta tibbiyot xodimlari o'qitildi.

Xodimlarga korrupsiya tushunchasi, tarixi, oqibatlarini, unga qarshi kurashish va oldini olishga doir masalalarni tushuntirish, yangiliklar, muammoli vaziyatlar va ularning yechimlarini tushuntirish maqsadida, avgust oyi "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" deb e'lon qilindi va **100 dan** ortiq huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazildi, alohida soha faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ham, xususan, **Toshkent shahar, Qashqadaryo va Surxondaryo** viloyatlarida tug'uruqxonalar faoliyati alohida yig'ilishda muhokama qilinib, profilaktika chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Tibbiyot sohasi vakillari uchun korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularga "halollik vaksinasi»ni singdirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari yuzasidan zaruriy

ma'lumotlar aks etgan **“Sog‘liqni saqlash tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qo‘llanma”** tayyorlanib ularga yetkazildi.

Har bir oilaviy shifokor punkti, oilaviy poliklinika va shifoxonaning kirish joylarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan va yangi tahrirda tayyorlangan chaqiriqlar, **“ishonch telefonlari”** va **targ‘ibot materiallari joylashtirilmoqda.**

Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar.

Vazirlikda korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun faoliyati yo‘lga qo‘yilgan **“1203” ishonch telefoni** 24/7 ish rejimiga o‘tkazilib, fuqarolarning **361 ta** murojaatlari o‘rganilib, **52 tasi** qanoatlantirildi hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiya holatlarining oldi olindi, qolganlariga huquqiy tushuntirish berildi. Yuridik shaxslarning **380 ta** murojaatlarining ijrosi ta‘minlandi.

Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasiga oid u yoki bu masalaga bildirilgan munosabatlar yuzasidan aloqa kanallari, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy sahifalar, shuningdek, maxsus telegram bot orqali kelib tushgan xabarlar monitoring qilinib, **10 dan** ortiq post va publikatsiyalar aniqlandi va ularda tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi noqonuniy xatti-harakatlar, davlat xaridlaridagi noqonuniy holatlar, korrupsiya faktlari, majburiy mehnat, open byudjetga majburlash, pul talab qilish va yig‘ish, xodimlarning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish hamda boshqa faoliyatga oid holatlar tanqid qilingan postlar natijasi bo‘yicha hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlariga ko‘rsatma kiritildi.

Sog‘liqni saqlash vaziri, hududiy boshqarma boshliqlari va tizim tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash aks etgan **murojaatnomasi** qabul qilinib, **20 ga yaqin** ijtimoiy tarmoqlar va elektron ommaviy axborot vositalari orqali aholi va soha xodimlari e‘tiboriga yetkazildi.

Monitoring, nazorat, aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta‘sir choralari.

Soha bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirishda sog‘liqni saqlash tashkilotlari va muassasalarining roli va mas‘uliyatini kuchaytirish, tibbiy xizmat ko‘rsatishning salmog‘i va sifatini yanada yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratish, tibbiyot va boshqa xodimlarning kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvga chek qo‘yish, korrupsiya omillarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida, Sog‘liqni saqlash vazirligining hududiy boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalarida vazirlik markaziy apparatining **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi, Ichki audit departamentiva** **Nazorat inspeksiyasi** tomonidan hamkorlikda tekshirish, o‘rganish va monitoring tadbirlarini manzilli va maqsadli o‘tkazish bo‘yicha tartib ishlab chiqilib tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining hududiy boshqarmalari, tizim tashkilotlari va ularning xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki lokal hujjatlarga rioya etilishini 2025-2026-yillarda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi xodimlari tomonidan monitoring va nazorat qilish rejasiga asosan **Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Farg‘ona, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent** viloyatlarida va **Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlarda** jami **57 ta** tekshirish o‘tkazildi va natijalari bo‘yicha korrupsiyani oldini olish ishlarida “shaxsiy namuna” ko‘rsatmagani, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha eng oddiy masalalarni hal etmagani uchun **50 nafar** xodimga nisbatan “**hayfsan**” intizomiy jazo chorasi qo‘llanilib, **4 nafari** bilan tuzilgan **mehnat shartnomasi bekor qilindi, 1 nafarining lavozimi pasaytirildi.**

Shuningdek, davolanish uchun **imtiyozli yo‘llanma (order)** tayyorlab berish bo‘yicha **korrupsion xatti-harakatga** huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan birgalikda **chek qo‘yildi** va holat bo‘yicha **2 nafar** xodimga nisbatan **jinoyat ishi qo‘zg‘atilib**, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Fuqarolar uchun tibbiy xizmatlarning tezkorligi, shaffofligi va sifatini oshirish maqsadida, “**Sirli mijoz**” institutini joriy etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasini.

Takliflar:

- mavjud elektron tizimlarda monitoring va aniqlash mexanizmlari bo‘lmasa, korrupsion holatlar saqlanib qolishi yoki raqamli shaklda yangi korrupsiya turlari paydo bo‘lish xavfi mavjud bo‘lib buning uchun **xodimlar, to‘lovlar, ish haqi, bemorlar ro‘yxati va yo‘llanmalarni boshqaradigan hamda boshqa yo‘nalish elektron tizimlarini yaxlitlash taklif etiladi**, natijada raqamlashtirishning to‘liq yaxlitligi va inson omilini butunlay istisno qilishga erishiladi.

- tibbiyot sohasi rahbar kadrlarida boshqaruv menejmenti, marketingi, personalni boshqarish, boshqaruvda optimal qarorlar qabul qilish texnologiyalari va tibbiy xizmat sifatini boshqarish kabi kompetensiyalar yetarli emas. Sog‘liqni saqlash tashkilotlari va muassasalari rahbari lavozimiga nomzodlarni boshqaruv sohasiga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda baholash uchun **menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish amaliyotini joriy qilish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash taklif etiladi**, natijada rahbar kadrlar tibbiyot sohasi menejmenti, marketingi, personalni boshqarish, boshqaruvda optimal qarorlar qabul qilish texnologiyalari va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarish, shuningdek, ular “O‘zbekiston

Respublikasining sog'liqni saqlash sohasidagi davlat siyosati", "Sog'liqni saqlash iqtisodiyoti" va "Sog'liqni saqlash boshqaruvining me'yoriy huquqiy asoslari" kabi o'quv modullari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi.

- tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashish, faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatish hamda tibbiyot xodimining xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilish, shuningdek, uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni, shu jumladan aholining soliqlar, kommunal to'lovlar, kreditlar va boshqa qarzdorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni va turli hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish holatlari mavjud.

Shuningdek, tibbiyot sohasi xodimlarini o'z faoliyati qolib obodonlashtirish va boshqa xo'jalik ishlartga jalb qilish oqibatida ko'pgina xodimlar ishdan bo'shab xususiy sektorga ketmoqda yoki boshqa sohalarga o'tib ketishga majbur bo'lmoqda.

Eng asosiysi, shifokorga qo'l ko'tarish, uni so'kib, haqorat qilish holatlari ham mavjud. Tahlillarga ko'ra, xizmat vazifasini o'tab turgan tibbiyot xodimlarining sog'lig'iga, hattoki tiklab bo'lmaydigan jarohat yetkazgan aybdor shaxslar ham ayrim hollarda hech qanday jazo o'tamasdan qolib ketmoqda. Bu esa tibbiyot xodimlarida o'zlariga nisbatan sodir etilgan tajovuzlar yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etishdan hech qanday naf yo'q, degan tushuncha paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday g'ayriqonuniy tajovuzga uchragan shifokorlarning beshtadan faqat bittasigina huquqni muhofaza qiluvchi organlarga aybdorni javobgarlikka tortishni so'rab murojaat etgan. Buning uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlarning **sog'liqni saqlash tashkilotlari va muassasalari faoliyatiga asossiz aralashuviga, tibbiyot xodimlarining sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, faoliyat jarayoniga to'sqinlik qilishning har qanday shakllariga, tibbiyot xodimlarining huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rish vakoltni Sog'liqni saqlash vazirligiga berish taklif etiladi.**

Natijada aholiga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi kasb egalari – tibbiyot xodimlarining maqomi yanada oshadi, mehnati qadr topadi. Shuningdek, tibbiyot xodimlari faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashgan, ularning ishiga to'sqinlik qilgan hamda tajovuz ko'rsatgan kimsalarni aniqlash va tibbiyot xodimlarining qonuniy huquqlarini himoya qilish vakolatiga ega organ belgilanadi va aybdorlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarni ko'rishni o'z vaqtida ta'minlashga erishiladi.

Rejalar:

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limining 9 ta ustuvor vazifalarini to'laqonli amalga oshirish;

- sohaga oid qonunchilik va idoraviy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish;

- byudjet qonunchiligi buzilishini oldini olish maqsadida profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

- faoliyatni raqamlashtirish va ochiqlikni ta'minlashni jadalashtirish;

- pullik tibbiy xizmatlar va davlat xaridlari ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;

- xarid qilinadigan tibbiy jixozlarning yagona texnik topshiriqlar bazasi shakllantirilib, **“jihaz.med”** axborot tizimida **qo'shimcha modul yaratish** va undan tibbiyot muassasasi mavjud bo'lgan boshqa vazirlik hamda idoralar foydalanishi imkoniyati yaratish;

- axborot tizimi orqali risklar aniqlanganda to'lovlarni to'xtatib qo'yish mexanizmini yo'lga qo'yish;

- **570 nafar** rahbar va hisobchilar bosqichma-bosqich iqtisodiy soha bo'yicha o'qitish.

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi
Korrupsiyaga qarshi ichki
nazorat bo'limi